


SHKNI ISHGA TAYYORLASH

Ismonova Gulnora Osmonjonovna

Xonobod shahar kasb – hunar maktabi ishlab chiqarish ta`lim ustasi.

Tayanch soʻz va iboralar: Plyus, Blok pitaniya, (Case), Ona plata (Mother board) , Protsessor (CPU) , Qattiq disk (HDD), Tezkor xotira – Operativ xotira (RAM)



Ushbu maʼruza matnida kompyuter yigʻish bilan tanishib chiqamiz. Kompyuter bir nechta qurilma va platalardan tashkil topadi. Qurilmalarning har birini nimaga ishlatilishidan xabardor boʻlsangiz, oʻzingiz bemaolol kompyuter yigʻib olishingiz mumkin. Kompyuterni yigʻish, operatsion tizimni va ishlash uchun kerakli dasturlarni yuklash 1 soatdan 3 soatgacha vaqt olishi mumkin.

Kerakli asbob va qurilmalar:

- “Plyus”li “otvyortka”
- Kompyuter korpusi (Case)
- “Blok pitaniya” (agar korpusni oʻzida boʻlmasa)
- Ona plata (Mother board)
- Protsessor (CPU)

- Video karta (ona plataga biriktirilgan ham bo‘lishi mumkin) – tasvirni monitorga yetkazib berish uchun ishlatiladi.
- Tezkor xotira – Operativ xotira (RAM)
- Qattiq disk (HDD)
- Tarmoq kartasi (agar kompyuter tarmoqqa ulanadigan bo‘lsa va ichki tarmoq kartasi bo‘lmasa)
 - Klaviatura
 - Sichqoncha
 - Monitor
 - Pilot
- Operatsion tizim (Windows, Linux...) va kerakli dasturlar (MS Office, Open office...)

Diqqat! Kompyuter yig‘ish vaqtida elektr uskunalar bilan ishlash qo‘llanmalariga amal qiling.

Kompyuter yig‘ishda bir narsani esda tutingki, zamonaviy kompyuter qurilmalarini, hox bu ona plata, hox qattiq disk bo‘lsin bir-biriga noto‘g‘ri tarzda ulab qo‘yishni ilojisi yo‘q. Ya‘ni, har bir qurilmani joylashtiruvchi “kaliti” bo‘ladi. Uni boshqachasiga kuch ishlatmasdan umuman ulab yoki joylashtirib bo‘lmaydi.

Kompyuterni tanlash:

- Kompyuter qanday vazifani bajarishini aniqlashtirib oling. Uni narhi kompyuter qanday vazifani bajarishligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Word, Excel va shunga o‘xshash ofisda ishlatiladigan dasturlari bilan arzon “ofis kompyuteri” ham qiynalmasdan ishlay oladi. Turli xil og‘ir dasturlar, grafik dasturlar bilan ishlash uchun esa kuchli kompyuter yig‘ish kerak bo‘ladi. Albatta, uni narhi ham qimmat bo‘ladi.
- Bo‘lajak kompyuterga qurilmalarni xarid qilishda sotuvchidan bu qurilmalar bir-biriga “sovmestimyy” ya‘ni mos kelishini oldindan aniqlashtirib oling. Barcha qurilmalar, eng avvalo, kompyuterni korpusi va ona plata bilan mos keladigan bo‘lishi kerak.

Kompyuter yig‘ish qo‘llanmasi:

1. Kompyuterni yig‘ishga iloji boricha kengroq joy toping. Sababi qurilmalarni bir-birini ustiga qo‘ymaslik lozim, hamda ularni yerga tushib ketish xavfidan xoli bo‘ladi. Bo‘sh joy va otvertkani tayyorlang.

2. Yig'ish jarayonini korpusdan boshlaymiz. Uni yon qopqog'ini (ba'zi korpuslarni qopqog'i korpusni to'liq qoplagan bo'ladi) oching. Shunda, korpusni



ichidagi bo'sh joy ochiladi.

3. Korpusga kerakli qurilmalarni joylash uchun uni yonlamachasiga joylashtiring.

4. Ona platani qutisini oching. Kompyuterni barcha qurilmalari ona plataga ulanadi. Ona platani korpusni ichiga shunday joylashtiringki, uning bir uchidagi "razyom"lar korpusni orqa tarafidagi katta ochiq joyga to'g'ri kelsin. Korpusdagi bu ochiq joy aynan ona platani razyomlari korpusdan tashqi tomonga chiqib turishi uchun



mo'ljallangan.

5. Korpusning mayda shuruplaridan foydalanib, ona platani korpusga mahkamlang. Ona platani korpusga to'g'ri joylashtirgan holatda, uni mahkamlash


uchun mo'ljallangan teshikchalari korpusni teshikchalariga to'g'ri keladi.



6. Ona platadagi protsessor soketini himoya qopqog'ini olib tashlang. Soketdagi "richag"ni ko'taring va mahkamlash "plastinasi"ni oching. Protsessorni qutisidan ehtiyotkorlik bilan oling, bunda protsessorni faqat yonlaridan ushlang, undagi kontaktlarga qo'l tekkizmang! Protsessorni ona platadagi soketga to'g'ri vertikal tarzda joylashtiring.



Protsessor burchaklaridan birida chizilgan sariq chiziqchaga va soketdagi chiziqchalarga e'tibor bering. Bu chiziqchalar protsessorni soketga qay tarafdin joylashtirish kerakligini ko'rsatadi.




Bundan tashqari, protsessorni yon taraflarida chuqurchalar soketda esa bo'rtib chiqqan do'ngliklar mavjud. Bu o'sha boya aytib o'tgan protsessorni "kalit"i

hisoblanadi. Protsessorni soketga joylashtiring. Mahkamlash “plastinasi”ni yoping va “richag”ni joyiga tushiring.

7. Endi esa, protsessorni ustiga kuler (ventilyator)ni mahkamlab joylashtirish kerak. Protsessor soketini atrofidagi 4 ta teshiklarga e’tibor bering. Kulerda ham 4ta “oyoq” borligini ko’rasiz. Kulerni protsessorni ustiga shunday joylashtiringki, uning oyoqlari ona platadagi shu teshikchalarga kirsin. Keyin ularni ketma-ket sekin bosib chiqiladi. Har bir oyoqchani bosib kimgazilganda ovoz eshitasiz. Kulerni yaxshilab joylashganligiga, e’tibor bering. Uni bir ikki qimirlatib ko’ring. Kuler protsessorni ustida mahkam turishi va ularni orasida hech qanday “zazor” bo’lmasligi kerak. Endi esa kulerdan chiqqan simni ona platadagi CPU-FAN dab nomlangan “raz’em”ga ulanadi.

8.



9. Endi ona plataga tezkor xotira (RAM)ni joylashtiramiz. Tezkor xotirani ham faqat yonlaridan extiyotkorlik bilan ushlab lozim. Ona platada xotira uchun 2,3,4 yoki undan ham ko’p “gnezdo” bo’lishi mumkin. Xotirani eng birinchi “gnezdo” (protsessorga eng yaqini) ga ulaymiz. Avval xotira joylashadigan gnezdodagi ikki oq rangli ushlagichlarni orqa tomonga itarib ochamiz. Xotirani ona plataga kiradigan past tarafga e’tibor u bir nechta bo’limlarga bo’linganligini ko’rasiz. Ona platadagi xotira “gnezdo”si ham bo’limlarga bo’lingan. Demakki, xotirani noto’g’ri kimgazib

bo‘lmaydi. Xotirani ikki tarafidan “gnezdo”ga o‘rta kuchda kirkazilsa yon tomondagi ikkita oq ushlagichlar xotirani ustidan “ushlab” olgan holatga keladi.



10. Endi kompyuter korpusiga “blok pitaniya”ni joylashtiramiz.



11. Korpusni orqa tomonidan unga “blok pitaniya”ni shuruplar yordamida mahkamlaymiz.



12. Endi “blok pitaniya”dan chiqqan, ona plata va protsessorga tok beruvchi simlarni (24 va 4 “pin”lik), ona platadan ulaymiz



13. Korpusga qattiq diskni joylashtiramiz va shuruplar bilan korpusga maxkamlaymiz.



14. Qattiq diskga ikkita sim ulaymiz. Biri “blok pitaniya”dan chiqqan tok beruvchi sim, ikkinchisi (ko‘p hollarda ko‘k yoki qizil rangli) ona plataning SATA-portiga ulanadigan, ma’lumot almashinuvi uchun ishlatiladigan sim. Bu yerda, “blok pitaniya”dan chiqqan tok beruvchi SATA-simini ulashda e’tiborli bo‘ling. Uni ham o‘z “kaliti” mavjud. Konnektorga yaxshilab qaralsa, u o‘girilgan “g” xarfini eslatadi. Qattiq diskdagi port ham xuddi shu shaklda. Agar konnektor qiyshiq ulansa ish paytida qisqa tutashuv (zamikaniya) bo‘lib, qattiq disk ishdan chiqishi mumkin.

15. Korpusni oldi qismidan qopqog‘ini ochib, uni o‘rniga DVD Rom qurilmasini o‘rnatamiz.





16. DVD ni korpusga shuruplar yordamida mahkamlaymiz.



17. Korpusni ichki qismidan DVD Rom ni ona plataga ulaymiz. Unga ham xuddi qattiq diskga o‘xshab ikkita shnur ulanadi. Biri SATA, ikkinchisi “blok pitaniya” shnuri. Xuddi shu tarzda, kompyuterga yana boshqa qattiq disk yoki DVD qurilmasini ulash mumkin.